

4 – AMALIY MASHG‘ULOT

Mavzu: Yer resursi va uni hisoblash.

Ishning maqsadi: Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar — qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan va ana shu maqsadlar uchun mo‘ljallangan yerlar, aholi punktlari yerlari , o‘rmon fondi yerlari , suv fondi yerlari , zahira yerlarni o‘rganish.

Yer resurslari — xalq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun foydalanish mumkin bo‘lgan yerlar. O‘zbekistonda Ye.r. tarkibiga foydalanib kelinayotgan yerlar va istiqbolda foydalanish mumkin bulgan yerlar kiradi (jadvalga q.). Ye.r. maydoni va sifati jihatidan baholanadi. Ye.r.dan foydalanish darajasini tahlil (qarang Yerdan foydalanish tahlili) etish va ularning samaradorligini aniqlash natijasida yer maydoni birligiga to‘g‘ri keladigan yalpi va sof daromad, mehnat unumdorligi aniqlanadi hamda yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilar faoliyatiga baho beriladi.

Yer fondi toifalari

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar — qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan va ana shu maqsadlar uchun mo‘ljallangan yerlar.

1. Aholi punktlari yerlari — shaharlar, qishloqlar chegara chizigi ichidagi yerlar.
2. Sanoat transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar — ko‘rsatilgan maqsadlarda foydalanish uchun huquqiy shahslarga berilgan yerlardir.
3. Tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar — alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar egallagan, tabiiy davolash omillariga ega bo‘lgan yerlar, shuningdek ommaviy dam olish va turizm uchun foydalaniladigan yerlar.
4. Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar — tarixiy-madaniy yodgorliklar joylashgan yerlardir.
5. O‘rmon fondi yerlari — o‘rmon bilan qoplangan, shuningdek o‘rmon bilan qoplanmagan bo‘lsa ham o‘rmon xo‘jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yerlardir.
6. Suv fondi yerlari — suv havzalari(daryo, ko‘llar, suv omborlari va h.), gidrotehnika va suv xo‘jaligi inshootlari egallab turgan yerlar.
7. Zahira yerlar — huquqiy va jismoniy shaxslar egaligiga, foydalanishiga hamda ijaraga berilmagan, mulk qilib sotilmagan barcha yerlar.


MINTAQA, VILOYAT, TUMAN VA SHAHARLARDA YER RESURSLARINI BOSHQARISH MASALALARI

1. Respublikada yer resurslarini boshqarish uslublari

Ozbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqlikda, davlat chegarasi doirasida, shu jumladan, barcha mintaqalar, viloyatlar va tumanlar maʼmuriy hududlarida qonunlar asosida yer resurslaridan foydalanish ishlari boshqariladi. Respublikada yer resurslarini boshqarish bir necha bosqichlardan iborat boʻlib bular: davlat boshqaruvi, maxalliy boshqaruv va xoʻjalik boshqaruvidan tashkil topgan (1-rasm).

Davlat boshqaruvi - davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy vazifalaridan kelib chiqqan holda umumdavlat boshqaruv va idoraviy boshqaruvlarga boʻlinadi. Umumdavlat boshqaruvi umumiy vakolatga ega boʻlgan yuqori davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Ular asosan Oʻzbekistonning yer resurslarini boshqarish sohasida strategik yoʻnalishlarni belgilovchi, ularning davlat miqʼyosida amalga oshirilishini taʼminlaydi. Idoraviy boshqaruv maxsus vakolatga ega bolgan, yer resurslarini boshqarish soxasiga faoliyati qaratilgan davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Mahalliy boshqaruv – mahalliy davlat organlari tomonidan, jumladan, viloyat va tuman davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi. Mahalliy boshqaruv organlari asosan davlat tomonidan belgilangan vaziflar va tadbirlarning amalga oshirilishini taʼminlovchi asosiy boʻgʻin hosiblanadi. Xoʻjalik boshqaruvi – maʼlum bir maqsadda yerdan foydalanish huquqiga ega boʻlgan yuridik yoki jismoniy shaxsi tomonidan amalga oshiriladi.




3-rasm. Yer resurslarini boshqarish bosqichlari.

Yer resurslarini boshqarishda davlat boshqaruvi oʻzining mazmuni va mohiyatidan kelib chiqqan holda umumiy va maxsus boshqaruv turlariga boʻlinadi. Umumiy boshqaruv umumiy vakolatga ega boʻlgan qonun chiqaruvchi va uni ijro etuvchi davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Maxsus boshqaruv yer resurslarini boshqarish va ulardan foydalanish nazorat qilish boʻyicha maxsus vakolatga ega boʻlgan davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi (4-rasm).

Viloyat va Qoraqalpogʻiston Respublikasi subʼekti – Oʻzbekiston Respublikasi va uning subʼektlari oʻrtasida vakolatlarini chegaralash toʻgʻrisidagi

shartnoma bilan muvofiqlikda davlat yer resurslarini boshqarish boʻyicha vakolat oladi. Davlat boshqarish tizimi viloyat darajasida yakunlanadi, quyi joylashgan darajalar «Oʻzbekiston Respublikasida mahalliy oʻz-oʻzini boshqarish toʻgʻrisida»gi qonunning 12-moddasi bilan muvofiqlikda mahalliy oʻz-oʻzini boshqarishga kiritilgan. Shuning uchun davlat hokimiyatining organlari tomonidan maxsus ruxsatsiz mahalliy oʻz-oʻzini boshqarish organlari davlat boshqarish ishlari bilan shugʻullanish tasarrufida boʻlgan huquqiga ega emas. Ular, shuningdek, boshqarish vazifasining bir qismini davlat boshqarishini subʼektidan shahar va tuman xizmatiga oʻtkazish yoʻli bilan rasmiylashtirish huquqiga ham ega emas.



4-rasm. YeRB buyicha davlat organlari tizimi.

Yerni davlat tomonidan boshqarilishi jarayonida tashkiliy-siyosiy va tashkiliy-huquqiysidan tashqari iqtisodiy prinsipni ham realizatsiya qilinadi. Koʻrsatib oʻtilgan usullar guruxlari bir-biridan ajralmagan. Aksincha, ular fakt birlikda boshqarishning tizimining maqsadga qaratilgan moʻljalini taʼminlaydi.

Shundan kelib chiqib, yerdan foydalanishni boshqarishning asosiga quyidagi tashkiliy-iqtisodiy usullarini qoʻyish kerak boʻladi:

1. Yer resurslarini boshqarishga siyosiy, iqtisodiy, ekologik va texnologik yondashuvlarning birligi.
2. Yerdan va boshqa tabiiy resurslardan ratsional foydalanish masalalarini majmuasi yechimi.
3. Yer resurslaridan foydalanish va joylashishining zonal farqlanishini hisobga olish.

4. Xalq xo‘jaligining turli tarmoqlarida yerlarni ishlab turish xususiyatini hisobga olish.
5. Yerga qishloq xo‘jaligining birlamchiligi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. «Qishloq xo‘jaligida mehnat resurislarni boshqaruv samaradorligini oshirish» / Monografiya U.S.Berdimurodov – TIQXMMI nashriyoti 2018-109 b
2. Abduraxmonov K.X. Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot / darslik. Qalandar Abduraxmonov. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan. 3-nashr. T.: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. «FAN» nashriyoti davlat korxonasi. T.: 2019.— 592 b.
3. Mehnat iqtisodiyoti: o‘quv qo‘llanma / Gulnora Abduraxmonova. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyoti-matbaa uyi, 2020. 138 b.,
4. Abduraxmonov K.X., Murtazaev B.CH. Mehnat bozori (o‘quv qo‘llanma) – Toshkent, TDIU, 1999.
5. Qodirov A. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida ijara va ijara munosabatlari asosida xo‘jalik yuritishning samaradorligini oshirish yo‘llari. Toshkent. 1999. 93 bet.,